

"Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" aktsiyadorlik jamiyatiga press-tur tashkil etildi

// 30.09.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/indorama-presstour>



"O'zkimyosanoat" aktsiyadorlik jamiyati tomonidan Farg'ona viloyatidagi "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" aktsiyadorlik jamiyati faoliyati bilan jurnalist va blogerlarni yaqindan tanishtirish maqsadida press-tur tashkil etildi.

Press-tur avvalida ommaviy axborot vositasi vakillari ishtirokida "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" aktsiyadorlik jamiyati faoliyati yuzasidan taqdimot o'tkazildi. Taqdimotdan so'ng jurnalistlar korxonaga va uning qoshida tashkil etilgan laboratoriya faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.



Korxonada 1935 yilda "Qo'qon superfosfat zavodi" nomi ostida Qizilqum fosforit kombinatining "Toshqura" konidagi fosforitlardan mineral o'g'itlar ishlab chiqarish maqsadida tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga asosan "Qo'qon superfosfat zavodi" aksiyadorlik jamiyatining ustav fondidagi 95,5 foiz ulushi Singapurning "Indorama Holdings BV" kompaniyasiga investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarni qabul qilish sharti bilan sotildi.



2019-2020-yillarda xorijiy investor "Indorama Holdings BV" kompaniyasi tomonidan "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" korxonasi ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali to'liq modernizatsiya qilish ishlari olib borildi. Bu ishlar natijasida ishlab chiqarish quvvati yiliga 75 000 tonnadan 350 000 tonnaga yetkazildi. Shuningdek, Ispaniya, AQSh, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Xitoy davlatlarining yetakchi kompaniyalaridan zamonaviy uskunalari olib kelib o'rnatildi. Ayni kunlarda qishloq xo'jaligi sohasi uchun sifatli mineral o'g'it ishlab chiqarilmoqda.

Joriy yil fevral-sentabr oylarida ishlab chiqarish 100 000 tonnani tashkil qildi. Umumiy 170 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shu davrda jami 15 000 tonnaga yaqin mahsulot eksport qilindi. 2,7 million dollarlik mahsulot Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston, Rossiya, Ukrainaga eksport qilindi.





2021 yil yakuniga qadar yangi azot-fosfor-kaliyli (NPK) kompleks mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Hozirda loyiha ishlari yakunlanib, qurilish-montaj ishlari jadal davom ettirilmoqda. Loyiha quvvati yiliga 150 ming tonna bo'lib, investitsiya miqdori 10 million AQSh dollarini tashkil etadi. Shuningdek, suvda tez eruvchan o'g'itlarni ishlab chiqarish ham ko'zda tutilmoqda.

Press-tur so'nggida jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati